

«YUKSAK MA'NAVIYAT – YENGILMAS KUCH»

**kitobini o'rganish
bo'yicha o'quv
qo'llanma**

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
Respublika ta'lim markazi ilmiy-metodik kengashi
tomonidan tavsiya qilingan*



Majouriy
bepul nusxa

TOSHKENT
«YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS»
2015

37,017.92 *Ma'naviyat tarbiyasi*

UO'K: 372.834(075)
KBK 63.3(50')ya7
Q-97

Y-27

«Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» kitobini o'rganish bo'yicha qo'llanma / tuzuvchilar: R. Qo'chqorov, M. Qarshiboyev, O. Toshboyev; ma'sul muharrir M. Quronov. - Toshkent : Yangiyo'l poligraf servis, 2015. - 48 b.

- I. Qo'chqorov, R. (tuzuv.)
II. Qarshiboyev, M. (tuzuv.)
III. Toshboyev, O. (tuzuv.)
IV. Quronov, M. (muhar)

Ushbu o'quv qo'llanma **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch»** kitobining ma'no-mazmuni, undagi asosiy tushuncha va tamoyillarni umumta'lim maktablari o'quvchilarining bilim va tafakkuriga mos holda ochib berish maqsadida tuzildi.

Albom-topshiriqnoma ko'rinishidagi ushbu o'ziga xos o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarini umumta'lim muassasalarida o'rganish bo'yicha alohida **fakultativ kurs** sifatida yoki boshqa ijtimoiy fanlar tarkibida o'rganish uchun mos qilib tayyorlandi.

ISBN 978-9943-979-51-2

UO'K: 372.834(075)
KBK 63.3(50')ya7

Tuzuvchilar:

R. Qo'chqorov, M. Qarshiboyev, O. Toshboyev.

Mas'ul muharrir:

M. Quronov – pedagogika fanlari doktori, professor.

Ilmiy-uslubiy maslahatchi:

Q. Nazarov – falsafa fanlari doktori, professor.

SHARTLI BELGILAR:



– «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asaridan olingan sitatalar;



– O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan olingan moddalar;



– har xil manbalardan olingan sitatalar;



– mavzu bo'yicha faollashtiruvchi savol va topshiriqlar.

ISBN 978-9943-979-51-2

© «Yangiyo'l poligraf servis», 2014, 2015.

2016/70
A1122
Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MF



«YUKSAK MA'NAVIYAT — YENGILMAS KUCH»

kitobini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanmadan foydalanuvchilar uchun yo'riqnoma

Tezlik bilan o'zgarayotgan dunyo qiyofasini oldindan bashorat qilish mushkul bo'lgan bir davrda, xalqimiz ertangi kunga ishonch bilan intilayotgan, to'g'ri tanlangan taraqqiyot yo'li ilk samaralarini ko'rsatayotgan, yangicha tafakkur, g'ayrat va shijoat bilan yangi avlod vakillari maydonga kirib kelayotgan O'zbekiston zaminida mustaqillikni mustahkamlash, barqaror taraqqiyotni ta'minlash, tinchlik va barqarorlikni asrab-avaylashda ma'naviy tarbiyaning ahamiyati yanada kuchaymoqda.



Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida «...insonning yuksalishida ma'naviyat olamining qanday ta'sir va ahamiyatga ega ekani, shuningdek, ma'naviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi haqida atroflicha fikr yuritish, xalqimiz yangi hayot, yangi jamiyat asoslarini qurayotgan hozirgi murakkab va tahlikali zamonda odamlarni bunday xatlardan ogoh etish, el-yurtimiz, keng jamoatchilik e'tiborini bu masalalarga yana bir bor qaratish, kelajak avlodimizni ma'naviy sog'lom va barkamol etib tarbiyalash bilan bog'liq» maqsad va vazifalar o'z ifodasini topgan.

Mazkur kitob muqaddima, to'rtta bob va xotimadan iborat bo'lib, uni o'rganish o'quvchini «ma'naviyat» tushunchasining boy olami va yangi kengliklariga olib kiradi, ma'naviyat haqidagi tasavvurlarini boyitadi, eng muhimi — ma'naviy kamolot sari intilishga da'vat etadi va unga eltuvchi yo'llarni ko'rsatib beradi. Ushbu qo'llanmaning maqsadi mana shu kitobni, undagi teran fikrlar, yuksak g'oyalar, keng mulohazalar va qimmatli ma'lumotlarni o'zlashtirishingizda sizga yordam berishdir.

MA'NAVIYATNI ANGLASH



..., **ma'naviyat** – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.




1. Ma'naviyatli inson bilan ma'naviyatsiz insonni farqlashga imkoniyat beradigan xususiyatlarni sanab bering.
2. Ma'naviyatli inson qanday bo'ladi?
3. Imon-e'tiqodli, irodali shaxs-chi?
4. Yuqoridagi savollarning javoblarini umumlashtirib ma'naviyatli insonga ta'rif berib ko'ring-chi.

Odamning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon



Komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish

Insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg'ayishi – ma'naviyatning negizi va ma'no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlardandir.



Halol va pok insonlar tufayli bu yorug' olamda ma'naviyat hamisha barqarordir.

Ruhiy poklanish yo'llari – bilim, ta'lim-tarbiya olish, halol mehnat, Vatanga muhabbat, el-yurtga sadoqat bilan xizmat qilish, ota-onani rozi qilish, oilaga, mahallaga, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat.

Qalban ulg'ayish yo'llari – sog'lom fikr va dunyoqarash asosida yashash, xalqning boy tarixi, ajdodlar merosidan saboq olish, doimo hushyor va ogoh bo'lish.



Vijdon pokligi va bedorligi asrlar, zamonlar osha inson ma'naviyatining tayanch ustunlaridan biri bo'lib kelmoqda. Jamiyat hayotida adolat va haqiqat, mehr-shafqat, insof-u diyonat kabi tushunchalarni qaror toptirishda aynan mana shu omilning o'rni va ta'siri beqiyosdir.

O'z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf yetkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo'lishi haqida o'ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar.

Hayotning ma'no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o'zini qiyamasdan, faqat nafs qayg'usi va o'tkinchi hoy-u havasga, huzurhalovatga berilib, yengilyelpi umr kechiradigan, o'zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo'lib yashaydigan odamlarning fikr-qarashlari.



1. Yuqoridagi dunyoqarashlarning qaysi biriga ega insonni Rahmon izmida, qaysinisini Shayton izmida yurgan inson desa bo'ladi?
2. Bu qarashlarning qay birini jamiyatimiz a'zolari qalbidan joy olishga haqli deb o'ylaysiz? Javobingizni asoslang.



Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak.



1. Kitobda «ma'naviyat» tushunchasiga qanday ta'rif berilgan?
2. Insonning ruhiy poklanishi va qalban uyg'onishini qanday tasavvur qilasiz?
3. Ma'naviyatni anglash uchun nega insonni anglash kerak?

MILLIY QADRIYATLAR

Har qanday xalq, jamiyat va davlatning ulkan boyligi va qudrat manbai ma'naviyatdir. Odamiylik, mehr-oqibat, baxt va saodat kabi tushunchalar ma'naviyat bilan chambarchas bog'liq.



1. Milliy ma'naviyatni shakllantiruvchi asosiy mezonlarni tavsiflab berishga harakat qiling.
2. Bu mezonlarning qaysi birini muhimroq, qaysi birini esa unchalik muhim emas, deb hisoblash o'rinli? Javobingizni asoslang.




1. Bizning yurtimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro ja-

moatchilikning tan olishi va e'tirof etishida buyuk allomalarimizning qanday hissalarini bor?

2. Yuqoridagi rasmlarda qaysi buyuk allomalarimiz aks ettirilgan? Ularning qaysi mashhur asarlarini bilasiz? Ayrimlarining mazmun-mohiyati va ahamiyati to'g'risida fikringizni bildiring.
3. Xalqimizning o'z ma'naviy boyliklari bilan g'ururlanishining sababi nimada deb o'ylaysiz?
4. Biz ma'naviy boyligimiz deb atay oladigan tarixiy yodgorliklarga misol keltiring.



Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi.



Urganch. «Avesto» yodgorligi.

2001-yili yurtimizda «Avesto»ning 2700 yilligi keng nishonlandi.



Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, «Avesto» deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aqlzakovati, qalb qo'ri mahsuli bo'lmish bu noyob yodgorlikning zamon to'fonlaridan, qanchadan-qancha og'ir sinovlardan o'tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o'zida katta ma'no mujassam. Bunday o'lmas osori atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi.




1. «Avesto»da ifodalangan fikrlar haqida tarix fanidan o'rganganlaringizni eslang.
2. Nima uchun biz «Avesto»ni bebaho ma'naviy obida deb ataymiz?
3. Qadimgi turkiy toshyozuv va bitiklarda ma'naviyatga oid qanday firklar uchrashini eslang.



1. Navro'z bayrami milliy qiyofamiz, ezgu urf-odatlarimizning ifodasi ekani nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Navro'z bayrami munosabati bilan xalqimiz tomonidan qanday xayrli ishlar amalga oshiriladi?
3. Siz shaxsan o'zingiz Navro'z bayramini qanday nishonlaysiz?

Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi. 1999- yili yurtimizda «Alpomish» dostoni ming yilligining keng nishonlanishi xalqimizning ushbu suyuqli dostonga bo'lgan muhabbatining yana bir isboti bo'ldi.



Termiz. Alpomish yodgorligi.



1. «Alpomish» dostonida vatanparvarlik, adolat va do'stlik, or-nomusni saqlash kabi fazilatlarni ulug'lash qanday namoyon bo'ladi?
2. «Avesto» va «Alpomish» kabi ko'hna yodgorliklar bizning davrimizgacha yetib kelganida qanday ma'no-mohiyat borligi haqida o'z mulohazalaringiz bilan o'rtoqlashing.
3. «Shoh bayt» deganda nimani tushunasiz?

DINIY VA DUNYOVIY ILM LARNI YUKSALTIRISHDA BUYUK MUTAFAKKIR AJDODLARIMIZNING BEQIYOS HISSASI

Muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.



Imom Buxoriy.
«Al-Jome' as-sahih».



Burhoniddin Marg'inoniy.
«Al-Hidoya».




Imom Moturidiy.
«Ta'viloti ahl as-sunna».



1. Ushbu bebaho asarlar ichida qaysi biri ahli islom e'tiqodiga ko'ra Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba, inson tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi?
2. «Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi» degan yuksak sharafga sazovor bo'lgan buyuk vatan-doshimizning nomini ayting.
3. «Din va millatning hujjati» degan yuksak unvonga kim sazovor bo'lgan?



Ma'lumki, xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shib keladi. Bu haqiqatni jahon jamoatchiligi, butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi – AYSESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007-yilda Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingani ham ana shunday yuksak e'tirofning yana bir tasdig'idir.



Toshkent. «Hazrati Imom» majmuasi.

Toshkent shahrining Islom madaniyati poytaxti deb eʼlon qilinishi munosabati bilan yurtimizda yana yangi ziyoratgozlar, masjidlar, madrasalar qurib bitkazildi, koʻplab tarixiy yodgorliklar taʼmirlandi, islom dini rivojiga hissa qoʻshgan vatandoshlarimiz haqida risolalar yozilib, xalqimizga tuhfa qilindi.



1. Vatanimizda mustaqillik yillari bunyod etilgan yoki taʼmirlangan qanday obidalarni bilasiz?
2. Axloq-odobga oid risola yoki asarlar bilan tanishmisiz? Ularning maʼno-mazmuni haqidagi fikrlaringizni bayon qiling.
3. Yurtboshimizning «Alloh qalbimizda, yuragimizda» degan soʻzlarini qanday izohlaysiz?


Muhammad Muso Xorazmiy haqida soʻz yuritilganda Prezidentimiz shunday fikr bildirdi:



«Bugungi kunda odamzotning ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar borasida erishayotgan ulkan yutuqlarini koʻz oldimizga keltirar ekanmiz, beixtiyor ana shu buyuk bobomiz misolida bunday yuksak marralarga erishishda oʻzbek xalqining ham munosib hissasi borligidan qalbimiz iftixorga toʻladi».



Ahmad al-Farg'oniyy.




Abu Ali ibn Sino.



1. Zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimizdan yana kimlarni bilasiz?
2. «Astronomiya asoslari haqida kitob» nomli asari XII asrdayoq lotin va ivrit tillariga tarjima etilgan va Yevropada Al-Fraganus nomi bilan mashhur bo'lgan olimning nomini ayting.
3. Amerikalik fan tarixchisi Sartonning XI asrni «Beruniy asri» deb ta'riflashida qanday ma'no bor?
4. Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazdi, deb aytishga qanday asos bor?
5. Xalqimizning dunyo ilm-faniga qo'shgan hissasi naqadar boy va rang-barang ekanligi, sizningcha, yana nimalarda namoyon bo'ladi?
6. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asari buyuk ajdodlarimizning ilmiy va madaniy merosini o'rganishingiz uchun turtki bo'lib xizmat qiladi, albatta. Siz ushbu faoliyatni qaysi mutafakkir yurtdoshimizning qaysi asarini o'rganishdan boshlamoqchisiz?

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MA'NAVIY YUKSALISH



Toshkent. «Temuriylar tarixi» davlat muzeyi.



Shu o'rinda buyuk bobolarimizning ma'naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to'xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azm-u shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilm-u fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi.



Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir (*Amir Temur*).



1. Prezidentimizning yuqoridagi so'zlarining ma'nosini yoritib berishga harakat qilng.
2. Amir Temir bobomiz so'zlarini bugungi kunda ham dolzarb desak bo'ladimi? Javobingizni asoslang.




Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma'noli hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo'lgan «Bilagi zo'r – birni, bilimi zo'r mingni yiqar» degan maqolga g'oyat hamohang bo'lib, insonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak ma'naviyat asosida yashashga da'vat etishi bilan e'tiborlidir.



1. Amir Temur bobomizning millatimiz faxriga aylanganining asosiy sabablari nimalarda deb o'ylaysiz?
2. Sohirqiron Amir Temur qanday ishlari bilan davlatchilik, ilm-u fan, madaniyat, bunyodkorlik, ma'rifat va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi?
3. Amir Temur bobomiz faoliyati jahon sivilizatsiyasiga qay darajada ta'sir ko'rsatgan?



Samarqand.
Amir Temur haykali.




Shahrisabz.
Amir Temur haykali.




Buyuk Amir Temurning nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulug'bekning o'rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo'ymaydi.

Taqdir bu ulug' zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi bo'lishdek o'ta mas'uliyatli vazifa aynan unga nasib etdi.



Samarqand. Ulug'bek
rasadxonasi.



Ziji jadidi
Ko'ragoniy.



1. Mirzo Ulug'bekning jahon fani ravnaqiga bemisli hissa bo'lib qo'shilgan qanday asarlarini bilasiz?
2. «Ziji jadidi Ko'ragoniy» jadvalining o'rta asrlarda-yoq lotin tiliga tarjima qilingani va Yevropa olimlari orasida keng tarqalganining sababi nimada?



... 1996-yili Parijda YUNESKOning o'sha paytdagi Bosh kotibi Federiko Mayor janoblari bilan bo'lgan bir suhbat yodimga tushadi. O'shanda janob Mayor Ulug'bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi kunda kompyuter yordamida tekshirib ko'rilganda atigi bir necha daqiqaga farq qilishi aniqlandi, degan gapni aytib qoldi. Shunda men unga javoban, yo'q, janob Federiko Mayor, Ulug'bek xato qilgan bo'lishi mumkin emas, balki kompyuterlar xato qilgan bo'lishi mumkin, degan edim. Garchi bu gap do'stona lutf tariqasida aytilgan bo'lsa-da, o'ylaymanki, uning zamirida chuqur haqiqat mujassam.



Prezidentimizning Parij xotirasi nimalarni isbotlaydi?

Amir Temur bobomiz va temuriylar tarixiy merosi bizga buyuk ibrat va to'g'ri yo'lni ko'rsatadigan bir mayoq vazifasini o'tab kelmoqda.




Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir...

... Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.



Andijon. Alisher Navoiy haykali.



«Mahbub ul-qulub» va «Lison ut-tayr».



1. Alisher Navoiy bobomiz qay tariqa o'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga ta'sir o'tkazgan?
2. Alisher Navoiyning qaysi asarlarini bilasiz? Ularda qanday g'oyalar tarannum etiladi?
3. Nima sababdan biz ajdodlarimiz tarixini o'rganishni muhim ahamiyatga ega masala deb hisoblaymiz?
4. Temuriylar sulolasining ma'naviyatimiz rivojiga qo'shgan hissasi to'g'risida Prezidentimiz o'z asarlarida qanday fikrlarni bildiradi?
5. Xalqlarni o'z ozodligi va mustaqilligidan judo qiladigan illatlar nimalardan iborat?

OILA – INSON MA'NAVİYATINING BESHIGI



1. «Qush uyasida ko'rganini qiladi».
2. «Kattaga hurmat, kichikka izzat».



1. O'zbek xalqining qanday qadriyatlari ma'naviyatning oiladan boshlab shakllanishini ifodalaydi?
2. Qanday ma'naviy mezon va qarashlar oila sharoitida qaror topadi?
3. Maqollarni izohlang. Bunday maqollarning yosh avlodning ma'naviy kamol topishida qanday ahamiyati bor deb o'ylaysiz?



..., bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.



Muxtasar aytganda, hammamizga ayon bo'lishi tabiiyki, oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir.

Ma'naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta'siri xususida to'xtalish, albatta, o'rinlidir... Xalqimizga xos o'zini o'zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas...

Davrlashchiligimiz tarixida birinchi marta «mahalla» tushunchasi Konstitutsiyamizga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va maqomi qat'iy belgilab qo'yildi.



Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.


(O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 105-modda.)

Mahalladagi sog'lom ma'naviy muhit u yerda o'sayotgan yoshlar tarbiyasi, axloq-odobiga g'oyat samarali ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, yoshlar o'zlarining xayrli ishlari, o'qish, mehnat va sportdagi muvaffaqiyatlari bilan mahallasining obro' va sharafini yuksaltiradilar.



1. «Mahalla – ham ota, ham ona», «Bir bolaga yetti qo'shni – ota-ona» degan hikmatli naqlarni qanday izohlaysiz?
2. Mamlakatimiz sharoitida mahallaning xalq ma'naviyatini asrashdagi roli nimada deb o'ylaysiz?

TA'LIM VA TARBIYA UYG'UNLIGI



1. Yurtimizda ko'plab yangi maktab, kollej, litseylar qurilishi, ta'lim sohasiga juda katta mablag' ajratilishining sababi nimada deb o'ylaysiz?
2. Davlatimiz tomonidan «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» kabi musobaqalarning o'tkazilishiga bu qadar katta e'tibor berilishidan maqsad nima?

3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida mam-lakatimizda bugungi kungacha qanday ishlar amal-ga oshirilganligini «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobi asosida gapirib bering.



«Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masala-sidir» (Abdulla Avloniy).



1. Abdulla Avloniyning so'zlarini qanday tushunasiz?
2. Nima sababdan Prezidentimiz kitobida shu so'zlarga alohida e'tibor qaratilgan?



Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ong-ni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi ...

..., xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzand-larimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.



1. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobi-da ta'lim-tarbiyaning ma'naviyatni boyitadigan va shakllantiradigan eng muhim omil ekanligi qay tariqa asoslangan?
2. Kitobda ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi qilib nimalar belgilangan?



Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot fal-safasi.



1. Ushbu so'zlarning ma'nosini o'zingiz mustaqil sharhlashga harakat qiling.
2. «Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin» degan maqolni izohlang.


MA'NAVIY VA MODDIY HAYOT UYG'UNLIGI




1. Yuqoridagi rasmlarda kimlar tasvirlanganini ayting.
2. Ularning qanday orzu-umidlari, maqsadlari va ehtiyojlari bor deb o'ylaysiz?
3. Ularning barcha orzu-umidlari, maqsadlari va ehtiyojlari faqatgina moddiy ne'matlardan iborat bo'lishi mumkinmi? Faqatgina ma'naviy ne'matlardan-chi? Javoblaringizni asoslang.



..., insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi.



1. «Bozor munosabatlariga o'tish davrida jamiyat a'zolarining o'z salohiyati va iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun ularga birinchi galdagi teng imkoniyat va erkinlik muhitini, ham qonuniy, ham amaliy shart-sharoitlarni yaratib berish zarur». Ushbu so'zlarning ma'nosi haqida rasmlarga qarab mulohaza yuring.
2. Qanday odam o'z xususiy ishini oqilona tashkil etishi mumkin? Nima uchun?
3. Ma'naviy yetuk inson bo'lish uchun moddiy hayotdan, yoki moddiy ta'minlangan bo'lish uchun ma'naviy hayotdan voz kechmoq kerak, degan qarashning noto'g'ri ekanini asoslab bera olasizmi?



MILLIY G'OYA VA MA'NAVIY HAYOT



Tabiiyki, milliy g'oyamiz shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning olijanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni o'z ichiga oladi.



1. Ko'pni ko'rgan mo'ysafidlar, erkag-u ayol tomonidan, qanday yig'in yoki ma'raka bo'lmasin, fotihaga qo'l ochganda eng ko'p so'raladigan narsa nima? Nima uchun shunday?
2. Barqaror taraqqiyot va farovon hayotga erishishning eng muhim sharti tinchlik va osoyishtalik ekanini qanday izohlaysiz?
3. Turli sohalarda mehnat qilayotgan yosh-u qari yurtdoshlarimiz qanday yuksak maqsadlarning amalga oshishiga u yoki bu ko'rinishda o'z hissalarini qo'shmoqdalar deb o'ylaysiz?
4. O'zingiz o'z oldingizga kelajakda erishish uchun qanday maqsadlarni qo'ygansiz? Erishish qiyin bo'lgan, ammo siz orzu qilgan qandaydir maqsadlaringiz bormi? Ularga erishish uchun qanday shart-sharoitlar bo'lmog'i kerak deb o'ylaysiz?



G'urur va iftixor tushunchalarini yuqoridagi rasmlar asosida ifodalashga harakat qiling.



Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtida yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqсадlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz.



Siz milliy g'oyani qanday tushunasiz?


Atrofingizdagi odamlar bilan shu haqida mulohaza yuring. Mulohaza natijalarini yozib qo'ying. Oila a'zolaringizdan ham bu boradagi fikrlarini so'rang va o'zingizning qarashlaringiz bilan solishtirib ko'ring.

Milliy g'oya

Keng ko'lamli islohotlarning pirovard maqsadi

Yurt tinchligi,
Vatan ravnaqi va
xalq farovonligi

Xalqning ezgu
niyat va orzularini
amalga oshirish



1. Yuqoridagi chizmadan nimalarni tushundingiz?
2. Mustaqillikka erishgach, yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning maqsadi nima?
3. Ushbu maqsadlarga erishish uchun bizda qanday shart-sharoitlar mavjud?



Bizning eng ulug' maqsadimiz, eng ulug' g'oyamiz shuki, O'zbekistonning bitta yo'li bor: mustaqillikni mustahkamlab, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib, yorug' va erkin hayot sari olg'a yurish.

Mafkuramiz, tutgan yo'limiz, bor kuch-g'ayratimiz ana shu ulug'vor niyatni amalga oshirishga yo'naltirilishi kerak. Xalqimizni, yurtimizdagi barcha siyosiy kuchlarni, nodavlat tashkilotlarni yagona umumiy maqsad atrofida birlashtiradigan, bir tan-u bir jon qiladigan milliy g'oya ham aslida shu.



Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan.

Bizning vazifamiz – shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish.

So'zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e'tiqod erkinligini ta'minlashimiz kerak...

Bundan buyon barcha rejalarimizda madaniyat, ma'rifat, jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy olishi lozim...

Yana bir dolzarb vazifa – o'sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlar xalq ma'naviyatining munosib egalaridir. Shuning uchun har bir o'g'il-qizimiz dastlabki qadamlaridan boshlab madaniy boylıklarimizdan bahramand bo'lishi kerak...

I. A. Karimov. Respublika Oliy Kengashining birinchi sessiyasi. 1990- yil, 24- mart.



1. 1990- yil 24- mart kuni qanday tarixiy voqea amalga oshgan edi?
2. Yurtboshimiz I. A. Karimovning Prezident sifatida so'zlagan ilk nutqida aytilgan g'oyalar bugungi kunga kelib nimalarda o'z ifodasini topgan va topmoqda?
3. O'zbekiston diyorida turli millat va elatlar ahillik, tinch-totuvlikda yashashining sababi nimada?
4. Oddiy so'zlar bilan, o'zingiz bilganingizcha «Ma'naviy tiklanish» iborasini tushuntirishga harakat qilib ko'ring.

TIL – MA'NAVIYAT KO'ZGUSI



Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasiga bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir.



O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.


(O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 4- modda.)



1. Davlat tili degani nimani anglatadi?
2. O'zbek tili davlat tili maqomini qachon olgan?
3. Sizningcha, mustaqillikka erishgach, «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonunni qabul qilishdan qanday maqsadlar ko'zlangan?



Davlat tili bilan birga yurtimizdagi barcha millat va elatlarning tillari rivojiga ham zarur shart-sharoitlar yaratilganligining sababi nimada deb o'ylaysiz?







«Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmaktur».

Abdulla Avloniy



1. Ma'rifat g'oyasini himoya qilishda huzur-halovatidan kechib, el-yurt manfaati uchun kurashgan jadid bobolarimizning nomlarini aytib bera olasizmi? Ular qanday ezgu maqsadlarni ko'zlab o'zlarini fido qilgan?
2. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zlarini qanday tushunasiz?

VATANGA MUHABBAT – MUQADDAS TUYG‘U. TARIXIY XOTIRA VA TAFAKKUR UYG‘ONISHI




Albatta, jahon – keng, dunyoda mamlakat ko‘p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O‘zbekistonimiz yakkay-u yagona. Bu go‘zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan.



1. O‘zlikni anglash, nasl-nasabni bilish, Vatanga, yurtga muhabbat deganda nimalarni tushunasiz?
2. Yurtboshimizning yuqorida keltirilgan so‘zlarini izohlashga harakat qiling.



El-yurtimiz taqdiriga daxldor bo'lgan tarixiy adolatni tiklash, xalqimiz va millatimizning yaqin o'tmishidagi yopiq sahifalarini to'la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirish, begunoh qurbon bo'lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farz edi.



1. Toshkentdagi Shahidlar xotirasi xiyoboni va muzeyi, Xotira maydoni barpo etilishi kabi ishlar yoshlar ma'naviy olamini kengaytirishda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini asoslang.
2. Har yili 31- avgustda Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni, 9-may Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlanishining mohiyati nimada deb tushunasiz?



El-yurtimizda yuksak ma'naviy fazilatlar, demokratik qadriyatlar mustahkamlanmoqda, eng muhimi, aholimizning amalga oshirilayotgan keng ko'lamli yangilanishlarga daxldorlik hissi, mamlakatimizning kelajagiga bo'lgan ishonchi ortib bormoqda.

GLOBALLASHUV JARAYONLARI, MAFKURAVIY TAHDIDLAR

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas

Integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi

Xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi

Ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi

Zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi

Sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifati kasb etishi

Ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi

Inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziemas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi

Chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib kirib kelishi mumkinligi

«Ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'rovonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish hisobidan boylik orttirish

Xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar



Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va, aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.



1. Globallashuv jarayoni deganda nimani tushunasiz?
2. «...Har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin» degan fikrga qanday izoh bergan bo'lardingiz?
3. Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va, aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarini mensimay, eskilik sarqiti deb qarash inson hayoti va yoshlar tarbiyasiga qay tarzda xavf solishi mumkin deb o'ylaysiz? Bunday yomon holatlarga qarshi qanday kurashish kerak?
4. Bunday kurashda ota-bobolarimiz tomonidan asrlar davomida ishlab chiqilgan sharqona axloq kodeksining ahamiyati haqida fikr yuriting. O'z mulohazalaringiz bilan o'rtoqlashing.
5. Xalqimizning «Uyat – o'limdan qattiq» degan maqolini izohlang.
6. Bugungi zamondagi ma'naviy tahdidlarni to'g'ri baholab, ulardan to'g'ri xulosa va saboqlar chiqarish naqadar muhimligini asoslab bering.
7. «Ommaviy madaniyat» niqobi ostida an'ana va qadriyatlar, ma'naviy tarbiyani qo'porishga qaratilgan harakatlar qanday ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin deb o'ylaysiz?

FIKRG QARSHI FIKR, G'OYAGA QARSHI G'OYA



Agar biz ahil bo'lsak, el-yurt manfaati yo'lida bir tan-u bir jon bo'lib yashasak, o'zimizdan sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi.



1. Yuqoridagi chizmadan nimani tushundingiz?
2. Fikrg qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishning qay tariqa amalga oshirilishini tushuntiring.



Men har qanday yovuzlikni sotqinlikdan ko'raman. Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo'lmagan, ularga ishonmagan odam qo'rqinchlidir. Tabiatida sotqinlik xususiyati bo'lgan odam rahbarlik kursisiga o'tirib qolsa bormi, u yerda osoyishtalik yo'qoldi, deyavering. Ikkita odamning, ikkita mamlakatning o'rtasidagi urushni ham aynan shunday odamlar boshlab beradi.



1. Prezidentimiz sotqinlikni bu darajada qoralashining sababi nimada ekan?
2. Sotqin rahbarning oddiy sotqin shaxsdan qo'rqinchliroq ekanligi qanday izohlanadi?

«Dushmanlardan qo'rqma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq – ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi».

Faylasuflardan biri aytgan yuqoridagi fikrlarni izohlab bering.

**Xalqimizni ulug'laydigan
buyuk fazilatlar**

Or-nomus, uyat va andisha,
sharm-u hayo, ibo va iffat
kabi yuksak axloqiy tuyg'u
va tushunchalar

Milliy va umuminsoniy
qadriyatlarga hurmat-
ehtiroim tuyg'usi

Ruhan poklik, baquvvat iroda,
butun iymon, uyg'oq vijdon

Ma'naviy barkamollikka
intilish

Samimiylik va
mehnatkashlik

**Eski zamonlardan qolib
kelayotgan noma'qul
odatlar**

Xudbinlik va loqaydlik

Qarindosh-urug'chilik va
mahalliychilik

Korrupsiya va
manfaatparastlik

Boshqalarni mensimaslik

Hasad

Sotqinlik



1. Yuqorida sanab o'tilgan salbiy va ijobiy xislatlarning har biriga baholi qudrat izoh bering.
2. Ezgulikka, ma'naviy barkamollikka va mehnatkashlikka da'vat etuvchi hadislardan topib, ularni sharhlang.
3. Nomaqbul odatlar, yomon xislatlar, hasadgo'ylik va sotqinlikni qoralovchi maqollardan topib, ularni ham o'z so'zingiz bilan sharhlang.

VATANIMIZ TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI



..., ma'rifatparvar bobolarimizning fikrini davom ettirib, agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharafli o'qituvchilik va murabbiylikdir, desak, o'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.



1. Rasmlarga razm solib, «yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» degan haqiqat qanday omillarga bog'liqligini ayting.
2. Ma'naviyatni chindan ham ana shunday qudratli kuchga aylantirish uchun biz qanday masalalarga birinchi galda e'tibor berishimiz, qanday ishlarni amalga oshirishimiz zarur?
3. Insonning ma'naviy salohiyati shakllanib, yuksalishida ommaviy axborot vositalarining roli qanday? Javobingizni izohlab bering.
4. Prezidentimiz 1998- yilda «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoban «Ba'zan beozor bo'lib tuyulgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi» deganida nimalarni nazarda tutgan deb o'ylaysiz?

E'tibor bersangiz, so'nggi to'rt-besh yil ichida milliy turmush tarzimizga mutlaqo yot va begona bo'lgan «Valentin kuni»ni nishonlash ba'zi yoshlar orasida qandaydir «moda» tusini olmoqda. O'zingiz o'ylang, ota-bobolarimizning tushiga ham kirmagan «Valentin kuni»da aksariyat ko'ngilochar joylar va dam olish maskanlari «oshiq-ma'shuq»larni bayram dasturxoniga taklif etadi: xususiy radiostansiyalar ma'ni-matrasiz, bo'lmag'ur qutlov va nomalarni o'qib eshittirishdan charchamaydi. Holbuki, o'sha biz tanimaydigan, tanishimiz uncha shart ham bo'lmagan Valentin «bobo»ning nomiga hamd-u sanolar yog'iladigan ayyomda, ya'ni 14- fevral sanasida buyuk ajdodimiz Bobur Mirzo bobomiz tavallud topgan!




Bunaqa bo'lmag'ur odatlar qanday yomon oqibat-larga olib kelishi mumkin?



Prezidentimiz bundan uch yil oldin 9-may – Xotira va qadrlash kunida jurnalistlar bilan o'tkazilgan suhbat-muloqotida Internetni katta bir do'konga qiyoslagan edi. «Bu do'konga kirgan odam o'ziga kerakli molni xarid qiladi. Lekin gap mana shu do'kondan nimani olishda», – degan edi yurtboshimiz. Muloqotda adabiyot, ilm-u fan, musiqa, san'at, sport va boshqa ijtimoiy-gumanitar sohalar bo'yicha saytlar yaratish zarurligi alohida ta'kidlangan edi.



1. Internetning qanday ijobiy va qanday salbiy jihatlari bor? Internetni do'konga o'xshatilishida qanday ma'no mujassam?
2. Hozirgi zamonda Internetning salbiy ta'siridan qay tariqa saqlanish mumkin deb o'ylaysiz?



1. Milliy tele- va radiokanallar orqali namoyish etilayotgan, ma'naviyatga, ma'naviy tarbiyaga oid ko'rsatuv va eshittirishlarni sanab bering. Sizningcha, yoshlarning ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda yana qanaqa ko'rsatuv yoki eshittirishlar samarali bo'ladi?
2. «Bugungi kunda radio va televideniyaning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri» mavzusida atrofingizdagi odamlar bilan munozara yuring.



Muxtasar aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi.



Ona tilimizdagi «maktab ko'rgan», «maktab yaratgan» degan iboralarni siz qanday tushunishingizni gapirib bering.


Mamlakatimizda 1- oktabr – O'qituvchilar va mu-
rabbiylar kuni sifatida umumxalq bayrami deb e'lon
qilingan. Ushbu bayram va, umuman, yurtimizda keng
nishonlanadigan barcha bayramlar qanday ma'naviy,
tarbiyaviy ahamyatga ega ekanligini izohlang.



G'afur
G'ulom.



Oybek.



Abdulla
Qahhor.



1. Diyorimizdan yetishib chiqqan ushbu yetuk adabi-
yot namoyandalarining qanday asarlarini bilasiz?
2. Ularning o'lmas asarlaridan qanday tarbiyaviy,
axloqiy, ma'naviy ozuqa olish mumkin deb o'ylay-
siz?
3. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchi-
larning esa inson ruhining muhandislari deb ta'riflan-
ishida qanday ma'no bor?
4. Mustaqillik yillarida yurtimiz va xorijda yaratilgan,
buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li tasvirlan-
gan asarlarga misollar keltiring.
5. Bunday asarlarning yoshlar ma'naviy tarbiyasi
uchun ahamiyati bormi?



Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum
etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini
ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqla-
moqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni,
buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz
kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytgani-
dek, adabiyot yashasa – millat yashaydi.



1. Sohibqiron Amir Temur davrida o'tkazilgan musiqiy anjumanlarning, an'analarning davomi tarzida mustaqillik yillarida hukumatimiz tomonidan qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
2. Ko'plab mutaxassislarning e'tirof etishicha, o'zbek estradasi istiqloq yillarida sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilgan. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz?
3. «Milliy estrada» deganda nimani tushunasiz? Milliy estradamizning yorqin namoyondalariga misollar keltiring.
4. Musiqa va kino sohasida ajnabiy «ommaviy madaniyat» ko'rinishlariga taqlid qilayotganlarga misol keltiring. Bunday nomaqbul holatlarning ma'naviyatga salbiy ta'siri qay tariqa namoyon bo'lishi mumkin?
5. Aytingchi, nima sababdan «Shashmaqom» kabi milliy musiqa merosimizning noyob durdonalari o'lmas asarlar bo'lib, xalqimizning hurmat va muhabbatiga sazovor bo'ladi-yu, yengil-yelpi, tumtaroq ohanglardan iborat «asarlar»ning umri juda ham qisqa bo'ladi?




1. Ma'naviy tarbiyada teatr va kinoning o'rni qanday?
2. Buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning «Teatr – bu ibratxonadur» degan so'zlari nimani anglatadi?
3. Kino va teatr sohasida real hayotdan, haqiqatdan yiroq asarlarning ko'payib ketishi qanday noxush holatlarni vujudga keltirishi mumkin?
4. «O'tgan kunlar», «Sen yetim emassan», «Mahallada duv-duv gap» kabi mumtoz filmlarimiz bilan hozirda juda ko'payib ketgan «filmlar» o'rtasida qanday farqlar bor? Davlatimiz rahbari tomonidan ushbu muammolarga katta e'tibor berilayotganining boisi nimada?




Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek rassomlarinig keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritayotgani, bu sohaga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat beradi.



Toshkent. Amir Temur haykali.



B. Annazarov.
«Xiva».



R. Xudoyberganov.
«Samarqandda kuz».



Yurtimizda ma'naviy tiklanish va yangilanish jarayonlari boshlanishi bilan boshqa san'at turlari kabi monumental san'atda ham yangi davr boshlandi. Ushbu soha shu qadar nozik va murakkabki, unda har bir detal, hatto eng mayda bo'lib ko'ringan masalaga ham jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi.



1. Mamlakatimizning turli shaharlarida o'rnatilgan buyuk alloma, yozuvchi va shoirlarimizning haykalari qanday qilib ma'naviy ozuqa manbai bo'lishini tushuntirib bering.
2. Yurtimizda ko'plab yodgorlik majmualari, muqaddas ziyoratgohlarning yaratilishi va tiklanishi ma'naviy olamimizni yuksaltirishga qo'shgan ulkan hissasi haqida o'z fikr-mulohazalaringizni bildiring.
3. Mustaqillik yillarida yurtimiz rassomlari tomonidan yaratilgan qanday asarlarni bilasiz?



..., o'yinchoq va qo'g'irchoqlarga tariximizdagi ibratli qahramonlar, xalqimizning boy va betakror estetik dunyosini aks ettiradigan personajlar, milliy qadriyatlarimiz asos qilib olinsa, maqsadga muvofiq bo'lur edi, deb o'ylayman.




1. Tasviriy va amaliy san'at asarlarida xalqimizning milliy qahramonlari, tarixiy shaxslar, qadriyatlarimizning aks ettirilishining qanday tarbiyaviy ahamiyati bor deb o'ylaysiz?
2. Prezidentimiz o'z asarida san'at sohasiga katta e'tibor qaratganining sababi nimada?


ENG BUYUK JASORAT



..., bu yorug' olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat – bu ma'naviy jasorat, deb javob bersak, o'ylaymanki, yanglishmagan bo'lamiz.



Sokrat.



Platon.




Jaloliddin Manguberdi.



Kopernik.



Jordano Bruno.



Mahatma Gandi.



1. Qanday xizmatlari evaziga Platon Sharq ilm-fani-da «Ustodi avval», ya'ni birinchi muallim degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan?
2. Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Galileo Galiley astronomiya sohasidagi ilmiy kashfiyotlari uchun qanday tazyiqlarga uchgagan?

3. Mahatma Gandi va Jaloliddin Manguberdi kabi ulug' shaxslarning qanday ishlari ma'naviy jasorat, insoniyat uchun ibratli hayot tarziga yorqin misol bo'ladi?
4. Ilm-fan sohasidagi tengsiz kashfiyotlari, ma'naviy jasorati bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir ajdodlarimiz va ularning meroslari haqida qisqacha gapirib bering.



Yahyo
G'ulomov.



Zulfiya.



Ozod
Sharafiddinov.



Ushbu yurtdoshlarimiz qaysi ishlari Prezidentimizning kitobida, ma'naviy jasorat namunalari sifatida e'tirof etilgan?



..., har kuni, har soatda fidoiy bo'lish, o'zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlik aslida mana shu, ...



Shu ma'noda, 1991- yil 31- avgust sanasida qo'lga kiritilgan milliy mustaqillik – XX asrda xalqimiz tomonidan amalga oshirilgan buyuk ma'naviy jasorat namunasidir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.



Rasmlarga qarab, mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda atrofingizdagi odamlar bilan fikr almashing.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: «Ma'naviyat», 2008.*
2. *Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat. — T.: «O'zbekiston», 1994.*
3. *Karimov I. A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: «O'zbekiston», 1997.*
4. *Karimov I. A. O'zbekiston ma'naviy yuksalish yo'lida. — T.: «O'zbekiston», 1998.*
5. *Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. — T.: «O'zbekiston», 1999.*
6. *Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. — T.: «O'zbekiston», 2005.*
7. *Ma'naviy yuksalish yo'lida. — T.: «Ma'naviyat», 2008.*
8. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2008.*



MUNDARIJA

Kirish.....	3
Ma'naviyatni anglash.....	4
Milliy qadriyatlar.....	7
Diniy va dunyoviy ilmlarni yuksaltirishda buyuk mutafakkir ajdodlarimizning beqiyos hissasi.....	11
Amir Temur va temuriylar davrida ma'naviy yuksalish.....	14
Oila – inson ma'naviyatining beshigi.....	18
Ta'lim va tarbiya uyg'unligi.....	20
Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi.....	22
Milliy g'oya va ma'naviy hayot.....	24
Til – ma'naviyat ko'zgusi.....	28
Vatanga muhabbat – muqaddas tuyg'u. Tarixiy xotira va tafakkur uyg'onishi.....	30
Globalashuv jarayonlari, mafkuraviy tahdidlar.....	32
Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya.....	34
Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori.....	36
Eng buyuk jasorat.....	44
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	46

«YUKSAK MA'NAVIYAT – YENGILMAS KUCH»

kitobini o'rganish bo'yicha
o'quv qo'llanma

Toshkent — «Yangiyo'l poligraf servis» — 2015

Nashriyot litsenziyasi AI № 185 10.05.2011y.

Muharrir — *J. Azimov*

Texnik muharrir — *M. Riksiyev*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 22.12.2015 y. Bichimi 60x90^{1/16}.

«Arial» garniturası. Ofset bosma usulda bosildi. Bosma t. 3,0.

Nusxasi 80 000. Buyurtma № 54-15.

«Yangiyo'l poligraf servis» MCHJ bosmaxona.

112001, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Samarqand ko'chasi, 44.